

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
BIYLIGI**

2023 - yil 27 - iyul

154-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi "Internet tarmog'ida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-117-sonli qarori, Qoraqalpog'iston Respublikasida "Kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi"ni o'tkazish to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 10-iyundagi 5/K1-1293-sonli xati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 13-iyuldagi SM/12-02/2841-sonli xatlarini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodiqov) Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joriy yilning 17-iyul kundan 24-iyul kuniga qadar "Kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi (Cyber-Week)" doirasida o'tkaziladigan tanlovlar g'oliblariga sovg'alar harid qilish uchun sarflanadigan 128 mln. 550 ming so'm (bir yuz yigirma sakkiz million besh yuz ellik ming) so'm pul mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralari ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) "Kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish haftaligi" tadbirlari doirasida g'olib va sovrindorlarni taqdirlash uchun ajratilgan mablag'larni qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati Bosh boshqarmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati boshqarmasidan (B.Utambetov) ajratilgan mablag'ning qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**